



CHET TILLARNI O'QITISHDA O'QUVCHILARNI MUSTAQIL O'QISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI.

Gulyamova Farog'at Erkinovna

*Surxondaryo viloyati TerDU akademik litseyi xorijiy tillar kafedrasи
ingliz tili fani birinchi toifa o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lism makkablarida chet tillarini o'qitishda o'quvchilarni mustaqil o'qish faoliyatini tashkil etishning zamonaviy yo'nalishlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: chet tillari, o'quvchilarni mustaqil o'rghanish faoliyati, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'lism sifati va samaradorligi.

Dunyo siyosatida o'ziga xos munosib o'rinni egallagan mamlakatimiz bugun jadal rivojlanish yo'lidan bormoqda. Mana shu taraqqiyot bosqichida xalqni harakatlantiruvchi kuch-yoshlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki bugungi kunda aholimizning 40 foizini 18 yoshgacha bo'lgan bolalar, 64 foizini esa – 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Shu nuqtainazardan mamlakatimizning istiqbolini ta'minlovchi yoshlar har tomonlama bilimli, etuk kadr bo'lib shakllanishi davr talabi hisoblanadi.

Bugungi kunning etuk mutaxassisni nafaqat o'z ixtisosligi bo'yicha bilimlarga, balki chet tillarini ham mukammal bilishi talab darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi "Chet tillarni o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'qrисida"gi 1875-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi «Uzluksiz ta'lism tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lism standartini tasdiqlash to'g'risida» 124-son Qarori, 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb hunar ta'limining davlat ta'lism standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarorida belgilangan vazifalar shular jumlasidandir.

Belgilangan vazifalarni bajarishda umumta'lism makkablarida chet tillarini o'qitishning sifat va samaradorligiga katta e'tibor qaratilmoqda. Chet tillarini o'qitishda sifat va samaradorlikka erishishda o'qituvchi dars jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishi talab etiladi.

Dars jarayonida berilayotgan bilimlar nafaqat nazariy balki amaliy faoliyatga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. "Rolli o'yin"lardan, darsliklarning multimediali ilovalaridan, rasmi va qiziqarli topshiriqlardan, rangli chizmalardan unumli foydalanish esa dars samaradorligi oshiradi, albatta. Darsliklarning multimediali ilovalari - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lism standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yorita oladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lism olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lism resursi hisoblanadi.

O‘quvchilarni chet tillarini mustaqil o‘rganishga yo‘naltirish bilan birga ularni bo‘sh vaqtalarini mazmunli va unumli tashkil etilishiga erishiladi. Bu jarayon ya’ni o‘quvchi yoshlarni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda ularni kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishga yo‘naltirish vazifasi ham prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan beshta muhim tashabbusda ilgari surilgan edi.

O‘qituvchining dars jarayonida muntazam ravishda zamонавиy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanishi hamda o‘quvchilarning kompyuter savodxonligi hamda internetdan foydalanish madaniyatining oshib borishi quyidagi natijalarni keltirib chiqaradi:

- o‘quvchilarni nafaqat fanga, balki har bir mavzuga bo‘lgan qiziqishi ortadi;

- o‘quvchilarda axborotlar bilan ishslash kompetensiyalari shakllanadi;

- o‘quvchilarning muntazam ravishda chet tillarni mustaqil o‘rganishiga erishiladi;

- o‘quvchilarda nafaqat chet tillari bo‘yicha bilimlar balki kompyuter

sohasidagi bilim va ko‘nikmalari birlashtirishda takomillashib boradi, media madaniyati shakllanadi;

- dars jarayonida o‘quvchi sub’ektga o‘qituvchi esa ob’ekga aylanadi, ya’ni

amaliy darslar natijasida o‘quvchilar tomonidan namunaviy darslar tashkil etilishiga erishiladi;

- pedagogik faoliyatning sifat va samaradorligi oshadi.

Shu bilan birga o‘quvchilarni muntazam ravishda mustaqil o‘rganishga yo‘naltirishning usul va vositalarini ishlab chiqishi kerak.

Muammoli izlanish metodlari - muammoli vaziyatlarni yaratish, muammoli savollar zanjirini tuzish, muammoli topshiriqlar tuzish va tajribalar o‘tkazish, muammoli vaziyatlarni hal etish yuzasidan o‘quv farazlarini hosil qilish, o‘quv farazlarini isbotlash, obyektlarni taqqoslash, mantiqiy mulohaza yuritish, o‘quv-tadqiqot tajribalarini o‘tkazish, o‘quv xulosalarini va umumlashmalarini ta’riflash uslublarini o‘z ichiga oladi.

O‘qitishning mantiqiy metodlari guruhi induktiv, deduktiv, tahlil, bosh g‘oyani ajratish, qiyoslash, umumlashtirish metodlaridan iborat bo‘lib, ularga quydagilarni kiritish mumkin.

a) **induktiv metod** - xususiy faktlarni muammoli bayon qilish, o‘quvchilar faoliyatini xususiydan umumiylar xulosalar chiqarishga yo‘naltirish, muammoli topshiriqlami berish uslubi;

b) **deduktiv metod** - umumiylar qonunlarni bayon qilish, o‘quvchilarning faoliyatini umumiyyadan xususiy xulosa chiqarishga yo‘naltirish uslubi;

c) **tahlil metodi** - axborotni anglab idrok etish, o‘rganilgan obyektlarning o‘xshashlik va farqli tomonlarni aniqlash, o‘rganilgan obyektlarni tarkibiy qismlarga ajratish, ular o‘rtasidagi boshlanishlarni aniqlash uslubi;

d) **bosh g‘oyani ajratish metodi** - o‘quv materialidagi asosiy g‘oyani ajratish va saralash, axborotni mantiqiy tugallangan fikrli qismlarga ajratish, asosiy g‘oya va ikkinchi darajali fikrlarni ajratish, tayanch so‘zlar va tushunchalarni ajratish, asosiy fikr haqida xulosa chiqarish uslubi tushiniladi.

f) **qiyoslash metodi** - qiyosiy obyektlarni aniqlash, obyektlarning asosiy belgilarini aniqlash, taqqoslash, o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, qiyoslash natijalarini shartli belgilar bilan rasmiylashtirish uslubi hisoblanadi.

g) **umumlashtirish metodi** - o‘quv materialidagi tipik faktlarni aniqlash, qiyoslash, dastlabki xulosalar, hodisaning rivojlanish dinamikasini tasavvur qilish, umumlashtirish natijalarini shartli belgilar yordamida rasmiylashtirish, umumiyl xulosa chiqarish uslublarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Mustaqil ish metodlari - guruhiga ko‘rgazma vositalari va darslik ustida mustaqil ishlash metodlari kiradi. Ular tarkibiga mustaqil ish topshiriqlarini berish, o‘quv faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish, o‘quv mehnati malakalarini tarkib toptirish, namunaga muvofiq mustaqil ishlarni tashkil etish, ijodiy topshiriqlar berish uslublari kiradi.

Modulli ta’lim texnologiyasi: Modulli ta’lim texnologiyasi modullarga asoslanadi. Modul lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, qism (blok) degan ma’noni bildiradi. O‘qituvchi o‘quvchilarni fanni darsdan tashqari mustaqil o‘rganishi uchun quyidagilarga yo‘naltirishi lozim, berilgan nazariy mavzularni darslikdan tashqari o‘quv adabiyotlari, elektron darsliklar va internet tizimi yordamida mustaqil o‘zlashtirishga mumkin. Interfaol so`zi inglizcha so`z bo`lib, «inter» o`zaro va «act» harakat qilmoq ma’nolarini bildirib, ularning umumiyl mazmuni interfaol ya’ni o`zaro harakat qilmoq ma’nosini anglatadi. Bunday o`zaro harakat turlariga “ o‘qituvchi” va o‘quvchining maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol o‘qitishda o‘qituvchi o‘quv faoliyatninig faol tashkilotchisi bo`lib, o‘quvchi bu faoliyatning sub’ekti sifatida namoyon bo`ladi. Interfaol o‘qitish bu bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashkiliy shakli bo`lib, interfaol o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchi o‘qitishning ob’ektidan o`zaro hamkorlikning sub’ektiga aylanishi, o‘quv jarayonida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi. O‘qitishning interfaol metodlari hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, rolli o`yinlardan foydalanish, muammolarni hamkorlikda yechishda ko`rib chiqiladi. Interfaol o‘qitish o‘quvchilardan axborotlarni o‘zlashtirish jarayonida faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, ta’lim maqsadlarining to’laqonli amalgaloshishiga yordam beradi. Bunda ta’limning quyidagi kontseptsiyalari fundamental asos sifatida hizmat qiladi. O‘qituvchining jadal faoliyatini o‘quv faoliyatining asosiy ko`rinishi sifatida namoyon bo`lib, u mazkur harakatning sub’ekti va tashkilotchisi sifatida faoliyat ko`rsatadi, o‘quv faoliyatining asosiy negizi va natijasi, mazkur faoliyatning sub’ekti o‘quvchi hisoblanadi; muvaffaqiyatli o‘quv faoliyatining asosiy ko`rsatkichi, uning natijasi o‘quvchining fikrlash usullarini o‘rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish, erkin, mustaqil harakat qila olish ko`nikmalarini shakllantirishdan iborat; o‘quv faoliyatining asosiy ko`rsatkichi o‘quv topshiriqlari xisoblanadi. Bunda ta’lim jarayonining asosiy sub’ekti bo`lgan o‘quvchida fikrlash, bilish harakati usullarini rivojlantiruvchi o‘qitish taktikasi muhim o`rin tutadi, o‘quv faoliyatini amalgaloshish jarayoni o‘quvchidan o`zining shaxsiy bilish mahorati va ko`nikmalarini o‘zlashtirib olishi uchun zamin hozirlashdan iborat.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, innovatsion ta’lim texnologiyalarini ilm-fan va ta’lim sohasida muvaffaqiyatli qo‘llash - o‘quvchilarda o‘z oldiga maqsad qo‘yish, erkin va mustaqil fikrlash, o‘z fikr-mulohazalarini bayon etish va uning to‘g‘riligini boshqalarga



isbotlay olish, yakka tarzda va juftlikda ishlash, hamkorlikda ishlash, ijodiy fikrlash, ma'lumotni tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z iqtidorini namoyon qilish, berilga imkoniyatlardan eng ma'qulini tanlash, bahs-munozaraga kirishish ko'nikmalarni shakllantiradi va rivojlantirib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ta'lim- tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari. O'quvuslubiy majmua. Toshkent. 2019, 25-bet.
2. <https://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiyl o'rta va o'rta maxsus kasb hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-soni Qarori
3. kun.uz.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar" mavzusidagi ma'ruzasi. 2019 yil 19 mart.